

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI MA'NAVIY-AXLOQIY
TARBIYALASHDA FOLKLOR ASARLARINING AHAMIYATI**

*Axmedova Shahnoza Fayzullo qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni xalq og'zaki ijodi – folklor namunalari bilan tanishtirish hamda bu orqali ularda m'naviy-axloqiy tarbiya elementlarini shakllantirish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, folklor, adabiy janrlar, ma'naviy tarbiya, axloqiy tarbiya.

Аннотация. В данной статье дается идея о приобщении учащихся младшего школьного возраста к фольклору – образцам фольклора и через это формирование у них элементов духовно-нравственного воспитания.

Ключевые слова: фольклор, литературные жанры, духовное воспитание, нравственное воспитание.

Annotation. In this article, it is thought about introducing students of junior school age to folklore - examples of folklore and through this, forming elements of spiritual and moral education in them.

Key words: folklore, literary genres, spiritual education, moral education.

“Aynan ta’lim va ma’rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezkulikka da’vat etadi, sabr-qanoatli bo’lishga undaydi”.

Sh. M. Mirziyoyev

Davlatimiz rahbarining yuqorida keltirilgan fikrlari bugun yosh avlod tarbiyasida aynan nimalarga e’tibor qaratish lozimligini yaqqol namoyon etadi.

Bugungi kunda boshlang’ich maktab ta’limining oldiga qo’yilgan vazifa faqatgina o’quvchilarga o’qish, yozishni o’rgatish hamda ularning savodini chiqarishdan iborat bo’libgina qolmay, balki maktab ostonasiga ilk qadam qo’ygan yosh avlodni har tomonlama barkamol, sog’lom va ma’naviy jihatdan yetuk shaxs bo’lib voyaga yetishlari uchun dastlabki tamal toshini qo’yishni ham o’z ichiga oladi. Bu vazifani amalga oshirishda adabiyot fani, xususan, xalq og'zaki ijodi – folklor namunalarini kichik yoshdan o'quvchilarga o'rgatish ijobiy natija berishi pedagogik tajribalar asosida o’z isbotini topgan.

Folklor (inglizchadan folk – “xalq”, lore – “bilim”, “donolik”) – xalq ijodini ifodalovchi termin. Fanga 1846-yilda ingliz arxeologi William Toms tomonidan olib kirilgan.

Folklor turli davrlarda va turli mamlakatlarda etografiya, adabiyotshunoslik, musiqashunoslik, antropologiya va sotsiologiyaning bir qismi sifatida qaralib kelgan. Keyinchalik xalq san'atini (xalq og'zaki ijodi, musiqa folklori, raqsi, teatri, sirkni kabi) o'rGANUVCHI mustaqil va maxsus fan sifatida rivojlanadi. Folklor filologiya va san'atshunoslik fanlari bilan uzviy bog'liqidir.

Turkiy xalqlarda folklor materiallarini yozib olish bo'yicha dastlabki tajribalar XI asrdan boshlab ko'zga tashlanadi (Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida ilk folklor namunalarini uchratish mumkin). O'zbekistonda dastlab, "og'zaki adabiyot", "og'iz adabiyoti" atamalari qo'llangan. "Folklor" termini 30-yillarning o'rtalaridan ishlatila boshlangan. 1939-yilda Hodi Zarifning "O'zbek folklori" xrestomatiyasi nashr etilgach, bu termin o'zbek folklorshunosligida mustahkam o'rin oldi.

Yangicha yo'nalishda shakllana boshlagan o'zbek folklorining dastlabki bosqichi o'sha davr sharqshunosligi va o'lakashunosligi erishgan yutuqlarni izchillik bilan o'zlashtirishga intilish, folklor materiallarini jadal jamlash, xalq hayoti va maishiy turmushining barcha tomonlariga kirib borishga urinish bilan ajralib turadi.

Mustaqillik yillarida folkloristik ishlarning miqyoslari yanada kengayadi, ekspeditsiyalar uyushtirish doimiy ravishda yo'lga qo'yildi, nisbatan yirik, miqyosan keng, fundamental ishlarni yaratishga intilish kuchaydi. Folklorning turli janrlariga bag'ishlangan monografiyalarning yaratilishi, "O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar", "O'zbek folklori ocherklari" nomida turkum to'plamlarining yuzaga kelishi, "O'zbek xalq ijodi", "Bulbul taronalari", "Alpomish" dostonining akademik nashri kabi ulkan nashrlarning amalga oshirilishi bunga yorqin misoldir.

O'zbek xalq og'zaki ijodiyotini bolalar folklorisiz tasavvur qilish mushkul, albatta. Bolalar folklori xalq og'zaki ijodining alohida tarkibiy qismi bo'lib, odatda, bolalar yoki ular uchun kattalar tomonidan yaratiladi. O'zbek bolalar folklori alla, ertak, tez aytishlar, topishmoq, bolalar o'yin qo'shiqlari, erkalamma, ermak, rivoyat va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bolalar folklori bolaning tinglashiga, aytib yurishiga, o'yiniga, qo'shig'iga moslangan bo'ladi. O'zbekistonda Bolalar folklori namunalari to'plam holida 1932-yildan nashr etila boshladи.

Kattalar tomonidan yaratiladigan alla, ovutmachoq va erkalamalar onalarning mehr-muhabbati bilan yo'g'rilgan bo'lib, ularda go'dakning istiqboliga oid orzu-umidlar, bola yashayotgan muhit o'z ifodasini topadi. Bolani belash, o'tqazish, atakchechak yurgizish, sakratish, o'ynatish va ovutishlarda "Toyttoy", "Bordibordi" va boshqa shu kabi ovutma qo'shiqlar aytiladi. Bolalar folklor qo'shiqlarining ko'plari yil fasllari bilan bog'liq. "Boychechak", "Oftob chiqdi olamga", "Chittigul", "Laylak keldi, yoz bo'ldi", "Qurbaqa", "Qaldirg'och" kabi qo'shiqlarni bolalar tom boshida, dalalarda, qishloq ko'chalarida aytishadi. Ular bahor kelishi, yomg'ir yog'ishi, quyoshning olamni isitishi, ilk chechak, birinchi qor kabi fasl va tabiat hodisalari bilan

bog'liq. "Bu bog'chada olicha", "Zuv-zuv borag'on", "Chamandagul", "Oq sholi, ko'k sholi" va boshqa qo'shiqlar turli davrlarda aytilaveradi. Ularda ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik, hunar va san'at bilan bog'liq mehnat jarayonlari, kattalar xatti-harakatlariga taqlid aks etadi.

O'quvchilarga Ona diyorning tabiatini, kishilarning mehnati, hayoti, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklarini, bolalar hayotidan olingan voqealarni, bolalarning o'yinlari, erkaliklari, orzu-istikclarini hikoya qilib berishda xalq ertaklari ham katta ahamiyatga ega. Xalqimizning tarixi, uning boshqa biror bir xalqning an'analariga o'xshamaydigan urf-datlari, moddiy va ma'naviy boyliklari barcha orzu-istiklari ming yillar davomida yaratilgan ertaklarda saqlanib kelmoqda. Ertak o'qigan bola qiyinchiliklarni yengishga, botir, jasur va dovyurak bo'lishga intiladi. Ertak – bu mo'jiza... Har doim yaxshilik yomonlik ustidan g'alab qozonadigan ajoyib dunyo. "Uch og'a-ini botirlar", "Zumrad va Qimmat", "Ur to'qmoq", "Oltin tarvuz", "Egrivoy va To'g'rivoy", "Malikayi Husnobod" kabi bir qator o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari o'quvchilarning sevimli ertaklariga aylangan. O'quvchilar bu ertaklardan kishi o'z mehnatiga ishonib yashashi lozimligini, birovning boyligiga hasad bilan qaramaslik kerak degan hayotiy xulosalarni o'qituvchi yordamida tushunib yetadilar, to'g'rilik, halollik g'alab qilganidan, kambag'al kishilar qiyinchilaklardan qutulganidan, ya'ni yaxshilik, ezgulik yovuzlikni mahv etganidan quvonadilar, hayotda ham doimo shunday bo'lishini istaydilar.

Bolalar folklori bolalarda eng yaxshi insoniy fazilatlarni – vatanparvarlik, mehnatga muhabbat, kishilarga ishonch, do'stlarga sadoqat tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi. O'zbek xalq topishmoqlari shu xalqning qadimiy madaniyati, tili, tarixi, va etnografiyasini, kishilarning o'sha davrdagi didi, dunyoqarashlarini o'zida aks ettiradi. Topishmoq aytishning qadimdan borligi, xalqning sevimli mashg'ulotlaridan biri ekanligi, son-sanoqsiz ertaklar, qizlarning yigitlarga, shohlarning cho'ponlarga topishmoq aytib javob qaytarishlarida ham ko'rinish turadi. Xalqimizning qahramonlik va ishqiy-romantik dostonlarida ham qahramonlar topishmoqlarga javob topish bilan, jumboqlarni yechish bilan murod-maqsadlariga yetishadilar. Bola hayotida, tarbiyasida ishtirok etadigan barcha mashg'ulotlar turmush talabi va bolalar tarbiyasi uchun juda zarur bo'lgan o'yinlar o'zining hamma rang-barangligi bilan bugungi maktab darsliklariga kiritilishi, bugungi kun o'quvchilariga yetkazilishi, ularni ham aqliy, ham jismoniy mashg'ul qila olishi zarur. O'zbek bolalar o'yinlarining bir turi bo'lgan topishmoqlar ham ana shu folkloarning alohida bir qismidir. O'zbek xalqining maqollari ham shu xalqning milliy an'analarini, ijtimoiy-tarixiy o'tmishini, orzu-umidlari, vatanparvarlik, insonparvarlik, mardlik, sadoqat singari eng yaxshi fazilatlarini aks ettiradi. Maqollarning g'oyaviy kuchi, mazmuni, til jihatidan go'zalligi ularning kim tomonidan va qaysi maqsadlar uchun, qanday maqsadda yaratilganligiga qarab belgilanadi. Maqollar, matallar,

hikmatli so'zlar, o'git, pand-nasihat xarakteridagi mazmuni bilan kishilarning axloqiy qiyofalarini tarbiyalashda har doim yordam berib keladi. Xalq maqollaridagi ohangdorlik, o'tkir badiiy o'xshatishlar, ramz va

istiora, qiyosiy solishtirishlar eshituvchini o'ziga rom qiladi, uning badiiy saviyasini oshiradi, ulardagi fikran teranlik, achchiq haqiqat kishilarning irodasini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, xalq og'zaki ijodi, xususan bolalar folklori orqali yosh avlodni hayotga to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatish, ona diyorimizga, mehnatga muhabbat, zamonamizga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularni yurtimizning munosib farzandlari bo'lishga chaqirish ta'lim tizimimizdagi dolzarb vazifalardan biridir. Sababi, kitob bolalarning borliq haqidagi dunyoqarashlarini shakllantirishga yordam beradi, ilm-fanga muhabbatini oshiradi. Bir so'z bilan aytganda, adabiyot bolalarni xalqimizning o'tmishi, madaniyati, fan va texnikamiz yutuqlari bilan tanishtiradi, ularda faxr va iftixor tuyg'ularini o'stiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar. 7- kitob. O'zbek folklorining epik janrlari.
– Toshkent: Fan, 1981.
2. M.Tursunova , U.Rashidova. Bolalar adabiyoti. O'quv qo'llanma. Samarqand 2021.

Internet manbalari

1. <https://cyberleninka.ru>
2. <https://wikipedia.org>